Yze тарих

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI
TARIX FAKULTETI

Ro'yxatga olindi: № BD-60220300 2024 yil "09 26"		**"TASDIQLAYMAN"** SamDU rektori: _____ R.I.Xalmuradov 2024 yil "__"_____

SHARQ ALLOMALARINING ILMIY MEROSI

FAN DASTURI

Bilim sohasi:	200000 – San'at va gumanitar fanlar
Ta'lim sohasi:	220000 – Gumanitar fanlar (Tillardan tashqari)
Ta'lim yo'nalishi:	60220300 – Tarix

Fan/modul kodi SH1505	O‘quv yili 2026-2027	Semestr V	ECTS – Kreditlar 5	
Fan/modul turi Majburiy	Ta’lim tili O‘zbek		Haftadagi dars soatlari 6	
1.	Fan nomi	Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)	Mustaqil ta’lim (soat)	Umumiy (soat)
	Sharq allomalarining ilmiy merosi	60	90	150

Fanning maqsadi (FM)	
FM1	**I. FANNING MAZMUNI** **Fanni o‘qitishdan maqsad** Fanni o‘qitishdan maqsad talabalarda Sharqda xususan, O‘rta Osiyo zaminidan yetishib chiqqan allomalarning ilmiy merosi haqida obyektiv taassurot uyg’otish. Ushbu qomusiy allomalarning tabiiy va ijtimoiy fanlarga qo‘shgan hissasini atroflicha tahlil qilish. Ularning dunyo ilmidagi o‘rnini anglash. Milliy g’urur va iftixor manbai hisoblanishini yosh avlod ongiga singdirish, ularda tarixiy xotira, tarixiy tafakkur ko‘nikmasini tarbiyalash milliy g’oya va yuksak ma’naviy fazilatlarni shakllantirish, ma’naviy dunyosini boyitish, ularni o‘z xalqi va Vataniga sadoqat, amalga oshirilayotgan ulkan bunyodkorlik ishlarining ongli faol ishtirokchisi bo’lish ruhida fikrlash va yashashga o’rgatishdan iborat. **Fanning vazifasi** O‘z milliy tarixi va madaniyatiga, dunyoda eng katta boylik bo‘lgan intellektual va ma’naviy salohiyatga chuqur hurmat bilan yondashish, uni asrab-avaylash va boyitish, shu asosda yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash jahondagi har bir davlat va jamiyatning moddiy va ma’naviy taraqqiyotida, hech shubhasiz, hal qiluvchi o‘rin egallaydi. Shu ma’noda mazkur o‘quv qo‘llanma ham oliy ta’lim tizimida o‘qitilib kelayotgan sharq allomalari ilmiy merosini o‘rganish va o‘qitishga qaratilgan bo‘lib Yangi O‘zbekiston sharoitida buyuk ajdodlarimiz nomi va ular qoldirgan yuksak ilmiy merosni teran anglab yetishga qaratilgan.

Fan mazmuni
II. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari) **II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**
Mashg‘ulotlar shakli: ma’ruza (M)

M1	**Kirish: «Sharq allomalarining ilmiy merosi» fanining predmeti, maqsad va vazifalari** O‘zbekistonda islom sivilizatsiyasi beshigini tebratgan ulamolar juda ko‘p o‘tgan. VIII-XII asrlarda O‘rta Osiyoda renessans – “Uyg‘onish” davri bo‘ldi. Imom al Buxoriy va Imom at Termiziy tufayli butun dunyo, jumladan, o‘zbek xalqi ham Payg‘ambarimiz (s.a.v)ning sahih hadislaridan bahrmand bo‘lib keldi va bu hamon davom etmoqda. Islom sivilizatsiyasi markazi va Imom Buxoriy ilmiy markazi.
M2	**Musulmon Renessansi tushunchasi va uning vujudga kelishidagi tarixiy shart-sharoit** X-XII asrlar O‘rta Osiyo xalqlari tarixida moddiy va ma’naviy hayotning rivoji. O‘tgan davrlarga nisbatan keskin yuksalish davri. O‘rta Osiyoda islom dini keng yoyilib, ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy hayot yuksalishi. Islomni qabul qilgan aholining arab tili bilan muloqotining kengayishi.
M3	**O‘rta asrlarda musulmon Sharqida tashkil etilgan yirik ilmiy markazlar** Movarounnahrda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot natijasida ilm-fanga homiylikning rivojlanishi. Musulmon dunyosida ilk akademiyalarning tuzilishi. Mazkur ilm markazlarida O’rta Osiyodan yetishib chiqqan olim va fozillarning to‘planishi. Akademiyalarning IX—XII asrlarda ilm-fan va madaniyat taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi.
M4	**O‘rta Osiyo allomalari ilmiy merosida ilmlar tasnifi, diniy va dunyoviy ilmlar taraqqiyoti** IX-XII asrlar O‘rta Osiyo xalqlari tarixida moddiy va ma’naviy hayotning rivojlanishida oldingi davrlarga nisbatan keskin yuksalishi. Ko‘pgina Sharq allomalarining asarlarida o‘z davri ilmlarining tasniflanishi. Tasniflarning qismlari va tarkibi. Fanlarning bayon etilishida Abu Abdulloh al-Xorazmiy “arab bo’lmagan” fanlarning boshqa ajoyibroq bayonini taqdim etishi. Hukmron sulolalarning ma’rifatparvar hukmdorlari tomonidan ilm-fan va madaniyatga doimiy rag’bat berilishi. Yirik kutunxonalarda son-sanoqsiz noyob, qimmatbaho diniy kitoblar va qo‘lyozmalar to‘planishi. O‘rta Osiyo xalqlari ma‘naviy madaniyatining o‘sishida islom madaniyatining ahamiyati. Islom faqat dingina emas, balki yangi ma‘naviy yo‘nalish sifatida ham butun madaniy jarayonga, barcha musulmon mamlakatlari orasida ijtimoiy-madaniy va ma’rifiy aloqalarning kuchayishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. IX-X1I asrlarda Movarounnahrda ilm-fan yuksalishi. Hozirgi zamon fanining ko‘plab tarmoqlari va yo‘nalishlariga chinakam poydevorning yaratilishi. Xususan, matematika, algebra, astronomiya, tibbiyot, geoiogiya, geodeziya, jug’rofiya, falsafa singari dunyoviy fanlarga tamal toshi qo‘yilishi.

M5	**Muhammad Xorazmiy va Abu Abdulloh Xorazmiy hayoti va faoliyati** Muso Xorazmiyning dunyo ilm faniga katta hissa qo‘shishi. «Al - kitob al-muxtasar fi hisob al-jabr va al- muqobala» nomli risolasida «Algebra» so‘ziga asos solinishi. Xorazmiyning «Ziji» astronomiyaning rivojlanishiga turtki bo‘lishi. Bag’doddagi xalifa al-Ma’mun saroyida Xorazmiy ijodi. Muso al-Xorazmiy «Bayt-ul hikma»ning ilmiy mudiri. Muso Xorazmiyning 20 dan ortiq asar yaratishi. Uning algebrik risolasini XII asrda Ispaniyada lotin tiliga o‘girilishi, Muso al-Xorazmiyning eng yirik astronomik asari – «Zij»dir. Ushbu asarning ahamiyati. Muso al-Xorazmiyning xizmatlarini jahon afkor ommasi tomonidan e’tirof etilishi.
M6	**Ahmad Farg’oniy va Ahmad Marvaziy ilmiy merosining o‘rganilishi** Abul Abbos Ahmad ibn Muhammad ibn Kasir al-Farg’oniy O‘rta Osiyolik mashhur mutafakkir allomadir. Al-Farg’oniyning Marvda ijod qilishi. Al-Farg’oniyning Bag’doddagi faoliyati. Al-Farg’oniyning rasadxonada kuzatishlar olib borishi. Al-Farg’oniy tomonidan 861-yilda Nil daryosi suvi sathini o‘lchovchi nilometrni yasashi. Ahmad al-Marvaziy (taxminan 780-880 yy.)ning Bag’dod ilmiy maktabida tutgan o‘rni. «Xabash al-Hosib (Xabash hisobchi)» Ahmad al-Marvaziyning «Ziji» va uning ahamiyati. Al-Marvaziy xalifa al-Ma’mun davrida olib borilgan tajriba va ilmiy tadqiqotlarning faol ishtirokchisi. Al-Marvaziyning 20 ga yaqin asarlar yaratishi va uning fan tarixidagi o‘rni.
M7	**Hadis ilmi va yirik muhaddis allomalar ilmiy merosi** Hadis ilmining rivojidagi oltin davr. Islom dunyosidagi eng nufuzli manbalar deb tan olingan 6 ta ishonchli hadislar (As sihoh as-sitta). «Hadis ilmida Amir al-Mo‘miniyn» degan sharafli nomga sazovor bo‘lgan Imom al-Buxoriyning ilm izlab sayohat qilishlari. Imom Buxoriyga saboq bergan ustozlar. Abu Iso Muhammad at-Termiziyning hadisshunos olim bo‘lib yetishishidagi omillar. Uning sharq mamlakatlariga safari. Allomaning ustozlari. Buyuk muhaddis maktabidan yetishib chiqqan shogirdlar. At-Termiziyning «Al-Jomi’», «Ash-Shamoil an-Nabaviya», «Al-ilal fi-l-hadiys» kabi asarlari va ularning islom olamidagi ahamiyati.
M8	**Abu Nasr Forobiy o‘rta asrning buyuk qomusiy olimi** Abu Nasr ibn Muhammad ibn Uzlug’ Tarxon – Forobiy jahon madaniyatiga katta hissa qo‘shgan Markaziy Osiyolik mashhur faylasuf. «Muallim us-soniy» Forobiy ijodida Bag’dod davri. Forobiyning o‘z ilmini oshirishdagi sa’yi harakatlari. Forobiyning Damashqdagi faoliyati. Forobiyning o‘rta asr davri tabiiy – ilmiy va ijtimoiy bilimlarining qariyb barcha sohalarida 160 dan ortiq asarlar yaratishi. Forobiyning qadimgi yunon mutafakkirlari asarlariga sharhlar yozishi. Uning falsafaning umumiy masalalarga bag’ishlangan asarlari. Bilimlarning nazariy tomonlari, falsafiy mazmuni bilan ko‘proq qiziqqanligi uchun uning

	asarlarini 2 guruhga ajratilishi: 1) yunon faylasuflari, tabiatshunoslarining ilmiy merosini izohlash, targ‘ib qilish va o‘rganishga bag‘ishlangan asarlar; 2) fanning turli sohalariga oid mavzulardagi asarlar.
M9	**Shosh allomalarining dunyo ilm fani rivojiga qo‘shgan hissasi** Abu Bakr ibn Ali Ismoil Qaffol ash-Shoshiy (903 -976 yy)ning dastlabki saboqlari. Uning Imom al-Buxoriy va Abu Iso Muhammad at-Termiziylarning ilmiy merosi orqali tanishuvi. Qaffol ash-Shoshiyning fiqh bilimlarini atroflicha o‘rganishi. Uning Hijoz, Bag’dod, Damashq kabi shaharlarga ilm izlab borishi.
M10	**Abu al-Mu’yin an-Nasafiy va nasaflik allomalar ilmiy merosining o‘rganilishi** Abul Mo‘iyn an-Nasafiyning islom dunyosida “Haqiqat qilichi” rutbasi bilan tanilishi. Abu Mansur Moturidiy asos solgan Moturidiya ta’limotining dunyoga yoyilishiga katta hissa qo‘shishi. Fiqh ilmi sohasidagi ulkan salohiyati bilan xalq orasida obro‘ qozongan.
M11	**Abu Mansur al-Moturudiy buyuk kalom ilmi va fiqh allomasi** Abu Mansur al-Moturudiyning «Kitob at – tavhid» asari va uning ahamiyati. Uning islom dinidagi suniylarning to’rtta asosiy mazhabi asoschisilarining asarlarini o‘rganib, fiqh va kalomga oid kitoblar yozishi. «Ta’vilot al-Qur’on» asari. Abu Mansur al- Moturudiyning izdoshlari va shogirdlari.
M12	**Abu Ali ibn Sino ilmiy merosining o‘rganilishi** Abu Ali ibn Sino yashagan davrga tavsif. Ibn Sinoning dastlabki saboq olishlari. Ibn Sinoning Ma’mun Akademiyasidagi faoliyati. Uni Isfaxonga qochishi. Ibn Sino hayoti haqida Juzjoniy. Ibn Sinoning 450 dan ziyod asar yozishi. Uning «Kitob ush-shifo» asari. «Donishnoma» Ibn Sinoning falsafiy asari. Ibn Sino zamonasining yetuk shoiri. «Urjuza» nomli tibbiy asar. Ibn Sinoning «Tib qonunlari» asari va uning ahamiyati. Abu Ali ibn Sino yashagan davrga tavsif. Ibn Sinoning dastlabki saboq olishlari. Ibn Sinoning Ma’mun Akademiyasidagi faoliyati. Uni Isfaxonga qochishi. Ibn Sino hayoti haqida Juzjoniy. Ibn Sinoning 450 dan ziyod asar yozishi. Uning «Kitob ush-shifo» asari. «Donishnoma» Ibn Sinoning falsafiy asari. Ibn Sino zamonasining yetuk shoiri. «Urjuza» nomli tibbiy asar. Ibn Sinoning «Tib qonunlari» asari va uning ahamiyati.
M13	**Burxonuddin al-Marg’inoniy va uning kalom ilmi rivojiga qo‘shgan hissasi** Burxonuddin al-Marg’inoniy (1123-1197 yy.) O‘rta Osiyodagi buyuk fiqhshunos alloma uni Samarqanddagi faoliyati. Uni ta’lim olgan

	40 dan oshiq ustozi. Uning fiqhshunoslikka oid asarlari. Al-Marg'inoniyning butun islom olamida mashhur bo'lgan «Hidoya» asari.
M14	**Abu Rayhon Beruniy hayoti va faoliyati: ilmiy asarlari tahlili** O'rta asrlarning qomusiy allomasi Beruniy yashagan davrga qisqacha xarakteristika. Xorazm Ma'mun akademiyasining vujudga kelishi. Abu Rayhon Beruniyning Xorazmshohlar saroyidagi faoliyati. Abu Nasr Mansur ibn Iroq Beruniyning ustozi. Beruniyning qadimgi tillarni o'rganishi. Beruniy va Mahmud G'aznaviy. Beruniyning «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» asari. Beruniyning tarix konsepsiyasi. Beruniyning «Hindiston» asari hindshunoslikda tengi yo'q asar. Beruniyning «Minerologiya» asari ushbu sohada noyob asar. Beruniyning dorivor giyohlarga bag'ishlangan «Saydana» asari. Beruniyning «Ibn Sino bilan yozishmalari» va unda dunyoqarash masalalari. «Geodeziya» asari. Beruniy asarlarining musulmon Sharqi madaniyatiga ta'siri.
M15	**Mahmud Zamahshariy hayoti va faoliyati: ilmiy asarlari tahlili** Mahmud az-Zamahshariy (1075 -1144 yy.). Xorazm zaminida jahon fani va madaniyati rivojiga munosib hissa qo'shgan alloma. Mahmud az-Zamaxshariyning ustozlari. Olimning Marv, Nishopur, Isfahon, Shosh va Bag'dod xamda Makkada ilmiy ishlar bilan shug'ullanishi. Mahmud az-Zamahshariy (1075 -1144 yy.). Xorazm zaminida jahon fani va madaniyati rivojiga munosib hissa qo'shgan alloma. Mahmud az-Zamaxshariyning ustozlari. Olimning Marv, Nishopur, Isfahon, Shosh va Bag'dod xamda Makkada ilmiy ishlar bilan shug'ullanishi.
III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar: seminar (S) **Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi.**	
S1	1-mavzu. **Musulmon Renessansi va uning vujudga kelishidagi tarixiy shart-sharoit**
S2	**2-mavzu.** O'rta asrlarda musulmon Sharqida tashkil etilgan yirik ilmiy markazlar
S3	**3-mavzu.** O'rta Osiyo allomalari ilmiy merosida ilmlar tasnifi
S4	**4-mavzu.** O'rta Osiyo allomalarining diniy hamda dunyoviy ilmlar rivojiga qo'shgan hissasi, Tasavvuf ta'limoti va Sharq allomalarining tasavvufiy qarashlari
S5	**5-mavzu.** Muhammad Xorazmiy va Abu Abdulloh Xorazmiy hayoti va faoliyati
S6	**6-mavzu.** Ahmad Farg'oniy va Ahmad Marvaziy ilmiy merosining o'rganilishi
S7	**7-mavzu.** Imom Buxoriy hayoti va Abu Iso Muhammad Termiziyning hadis ilmi rivojiga qo'shgan hissasiv

S8	**8-mavzu.** Abu Nasr Forobiy o‘rta asrning buyuk qomusiy olimi
S9	**9-mavzu.** Shosh allomalarining dunyo ilm fani rivojiga qo‘shgan hissasi
S10	**10-mavzu.** Abu al-Mu’yin an-Nasafiy va nasaflik allomalar ilmiy merosining o‘rganilishi
S11	**11-mavzu.** Abu Mansur al-Moturudiy buyuk kalom ilmi va fiqh allomasi
S12	**12-mavzu.** Abu Ali ibn Sino ilmiy merosining o‘rganilishi
S13	**13-mavzu.** Burxonuddin al-Marg’inoniy va uning kalom ilmi rivojiga qo‘shgan hissasi
S14	**14-mavzu.** Abu Rayhon Beruniy hayoti va faoliyati
S15	**15-mavzu.** Mahmud Zamahshariy hayoti va faoliyati

IV. **Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar**

Mustaqil ta’lim uchun tavsiya etiladigan mavzular

“Sharq allomalarining ilmiy merosi” fani bo‘yicha mustaqil ta’lim va ishlarning kalendar tematik rejasi

№	Mustaqil ta’lim mavzulari
1.	Mustaqillik yillarida Sharq allomalarining ilmiy merosining qayta tiklanishi
2.	Mustaqillik yillarida Sharq allomalarining ilmiy merosining o‘rganilishi
3.	Mustaqillik yillarida Imom Buxoriy, Imom Moturidiy, Imom Termiziy ilmiy tadqiqot majmualarining tashkil etilishi va uning ahamiyati
4.	Sharq allomalari ilmiy merosining o‘rganilishida M.M.Xayrullaev xizmatlari
5.	X-XII asrlarda tarix ilmi va uning rivoji
6.	X-XII asrlar ilmlar rivojida aniq fanlar taraqqiyoti
7.	O‘zbekistonda tasavvuf tarixining tadqiq qilinishi
8.	Ahmad Farg‘oniy va Ahmad Marvaziy ilmiy merosi
9.	Nasaflik allomalar ilmiy merosi
10.	Samarqandlik allomalar ilmiy merosi
11.	O‘rta asr ilmlar tasnifida geografiya ilmi
12.	Tasavvufning Movarounnahr tariqatlari
13.	O‘rta asr ilmlar tasnifida tilshunoslik ilmi
14.	Abu Abdulloh al Xorazmiyning dunyo ilmlari tasnifiga qo‘shgan hissasi
15.	O‘rta asr ilmlar tasnifida tabiiy ilmlar
16.	Termizlik allomalar ilmiy merosi
17.	Burhoniddin Marg’inoniy ilmiy merosi
18.	Imom Moturidiy ilmiy merosi
19.	Najmiddin Kubro va uning ilmiy merosi
20.	Qaffol Shoshiy va uning ilmiy merosi
21.	Abu Rayhon Beruniy ilmiy merosining o‘rganilishi
22.	Ibn Sino ilmiy merosining o‘rganilishi

23.	Abu Nasr Forobiy ilmiy merosining o'rganilishi
24.	Abu Nasr Forobiyning davlat va jamiyat haqidagi qarashlari
25.	O'rta asrlarda islom huquqshunosligi ilmi
26.	Imom Buxoriy ilmiy merosining o'rganilishi
27.	Muhammad Xorazmiy va uning ilmiy merosi
28.	Qaffol ash-Shoshiy ilmiy merosining o'rganilishi
29.	Musulmon Renessansi va uning vujudga kelishidagi tarixiy shart-sharoit
30.	Shoshlik allomalar ilmiy merosining o'rganilishi
31.	Abu Rayhon Beruniyning "Hindiston" asari tahlil
32.	Abu Rayhon Beruniyning "Qadimgi xalqlardan xolgan yodgorliklar" asari tahlil
33.	As Sam'oniyning "Al ansob (Nasabnoma) asari tahlili"
34.	Forobiyning "Fozil odamlar shahri" asari sharhi
35.	Ibn Sinoning "Tib qonunlari" asari sharhi
36.	Imom Buxoriyning "Al jome as sahih" asari tahlili
37.	Muhammad Xorazmiyning "Tanlangan asarlari" tahlili
38.	Abu Abdulloh Xorazmiyning "Mafotih ul ulum" asari tahlili
39.	Qonuni Ma'sudiy asari va uning tahlili
40.	Mahmud Zamaxshariy asarlari tahlili

"Sharq allomalarining ilmiy merosi" fani Talaba bilishi kerak:
Sharq allomalarining ilmiy merosi fani yuzasidan mavzularning nazariy va metodologik asoslari, imperik ma'lumotlar, misollar va ilyustratsiyalar, ilmiy dalillar, ilmiy bilimlarning tarkibi, ilmiy dalillarning o'ziga xos xususiyatlari kabi bilimlar bazasiga ega bo'lishi;
Ta'lim to'g'risidagi me'yoriy-huquqiy hujjatlarda ko'rsatib o'tilgan talaba-yoshlarning tarixiy dunyoqarashini boyitish, ularda mustaqil fikrni qaror toptirish, tarixni mukammal darajada bilish, insoniyat sivilizatsiyasining yutuqlaridan va tajribasidan to'la bahramand bo'lish, umuminsoniy qadriyatlarni anglab yetishga ko'maklashish va dunyo miqyosida mavjud bo'lgan muammolarning tarixiy ildizlarini izlab topish kabi dolzarb masalalarni o'rganadi.

3.	**V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)** Fanni o'zlashtirish natijasida talaba: Mazkur fanni o'qitish jarayonida ta'limning samarali texnologiyalari, interfaol metodlari va axborot-kommunikatsion texnologiyalari qo'llanilishi nazarda tutilgan: - fanning barcha bo'limlariga tegishli ma'ruza mashg'ulotlarida zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida slayd va elektron-didaktik texnologiyalardan foydalanish; • - amaliy mashg'ulotlari jarayonida interfaol metodlar (erkin yozish, semantik xususiyatlar tahlili, aqliy hujum, fikrlar hujumi, doira stoli, uch

	qismli intervyu, B-B-B chizma, eng muhim atamalar, o‘qitish bo‘yicha qo‘llanma, ikki qismli kundaliklar, besh minutlik esse, grafik organayzerlar va boshqalar) qo‘llaniladi.
4.	**VI. Ta’lim texnologiyalari va metodlari:** • ma’ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • *munozara,* • *o‘z-o‘zini nazorat.* • “Aqliy hujum”, • “Muammo”; • Krossvord • Annogrammalar • Ko‘chma dars mashg‘ulotlari
5.	**VII. Kreditni olish uchun talablar:** Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘liq o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy nazorat shakllari, hamda mustaqil ta’limda berilgan vazifa topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat ishini topshirish

6. ASOSIY ADABIYOTLAR:

Rahbariy adabiyotlar

Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. Т. 1. - Тошкент: Ўзбекистон.. 2017.

Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга қурамиз. - Тошкент: Ўзбекистон. 2017.

Asosiy adabiyotlar

1. Narmanov F.A. Sharq allomalarining ilmiy merosi. – Toshkent, Tamaddun. 2022.
2. Абдуҳалимов Б.А. “Байт ал-ҳикма» ва Ўрта Осиё олимларининг Бағдоддаги илмий фаолияти. -Т.: Тошкент ислом университети, 2004. -236 б.
3. Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шаҳри. Т.: ЎзМУ нашриёти, – 2004.
4. Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи. -Т.: Шарқ, 2001.-368 б.
5. Аль-Хорезми. Танланган асарлар. / Пер. и примеч. А. Ахмедова. – Ташкент: Фан, 1983. – 140 с.
6. Баҳодиров Р.М. Абу Абдуллоҳал-Хоразмий ва илмлар таснифи тарихидан. - Т.: Ўзбекистон, 1995. -143 б.
7. Юртимиз алломалари / масъул муҳаррир У. Уватов. - Тошкент : Ниҳол, 2014. - 240 б

QO‘SHIMCHA ADABIYOTLAR:

1. Ўзбекистоннинг янги тарихи. 1, 2, 3-китоблар. Т.: Шарқ, 2000.

2. Сагдуллаев ва бошқалар. Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиёти. Т., 2000.
3. Ўзбекистон тарихи (1917-1991-йиллар) Биринчи ва иккинчи китоблар/ масъул муҳаррир Қ.Ражабов. Т.; -"Ўзбекистон" - 2019
4. Ўзбекистон давлатчилиги тарихи очерклари / Масъул муҳаррир Д.Алимова- Т.,2001
5. Ўзбекистон тарихи. Дарслик. II жилд. Муаллифлар жамоаси. Т.: Янги аср авлоди, 2015
6. Ўзбекистоннинг янги тарихи. 2-китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. Т,, «Шарқ». 2000.
7. Ўзбекистоннинг янги тарихи. 3-китоб. Мустақил Ўзбекистон тарихи. Т., «Шарқ», 2000.
8. Шамсутдинов Р. «Ватан тарихи» иккинчи ва учинчи китоблар Т.2010
9. Шамсутддинов Р, Мўминов Х. Ўзбекистон тарихи. Ўқув қўлланма. –Т.: "Шарқ" нашриёт матбаа акциядорлик компанияси бош нашриёти, 2013
10. Эшов Б.Ж. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошварув тарихи. Дарслик. – Т.: Янги аср авлоди, 2012
11. Буюк аждодларимиз. – Тошкент: Тошкент ислом университети. 2002.
12. Жузжоний А.Ш. Тасаввуф ва инсон. – Тошкент: Адолат, 2001.
13. Ирисов А. Абу Али ибн Сино ҳаёти ва ижодий мероси. – Тошкент: Фан, 1980. – 207 б.
14. Комилов Н. Нажмиддин Кубро. – Тошкент: Халқ мероси, 1995.
15. Комилов Н. Тасаввуф. Т.: Мовароуннахр — Ўзбекистон, 2009.
16. Комилов Н. Тафаккур карвонлари, – Тошкент: Маънавият, 1999. – 279 б.
17. Конрад Н.Н. Запад и Восток. М.: Т.1 редак. Вост. литературм. 1972.
18. Қориев О. Фарғона фиқҳ мактаби ва Бурҳонуддин ал-Марғиноний. – Т.: Фан, 2009.
19. Махмуд Аз-Замахшарий. "Ал-Унмузаж". Тошкент ислом университети. – 2001.
20. Маънавият юлдузлари / Тўпловчи, нашрга тайёрловчи ва масъул муҳаррир М.М.Хайруллаев. Тўлдирилган қайта нашр. -Т.: Халқ мероси нашриёти, 2001. - 408 б.
21. Маърифат юлдузи. – Урганч: УДУ, 1997.
22. Мец Адам. Мусульманский ренессанс // Перевод с немецкого и предисл. Е. Э. Бертельса. — М.: наука, 1966.
23. Муҳамедов Н. Шошлик муҳаддис ҳаёти ва фаолиятига доир айрим маълумотлар // Академик Убайдулла Каримов номидаги ёш шарқшунослар илмий конференцияси тезислари (ЎзР ФА Шарқшунослик институти, 2005 йил 6 апрель), - 2005.

24. Оқилов С. Абул Муин ан-Насафий илмий мероси ва мотуридия таълимоти. - Т.: Нур полиграф. 2008.
25. Рудолф У. ал-Мотуридий ва Самарқанд суннийлик илоҳиёти. -Т.: Имом ал-Бухорий халқаро жамғармаси, 2001. -397 б.
26. Саидов А. Усулул фиқҳ — ислом қонуншунослигига бир назар // Усулул фиқҳ. -Т.: Адолат, 1997. -Б. 209.
27. Сулаймонова Ф. Шарқва Ғарб (Қадимий давр ва ўрта асрлар маданий алоқалари). -Т.: Ўзбекистон, 1997. -416 б.
28. Уватов У Имом ал-Бухорий хаёти. -Т.: Шарқ, 1998. -90 б.
29. Уватов У. Абу Исо ат-Термизий. Саҳиҳ ат-Термизий / ААбдулло таржимаси. -Т.: Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1993. -208 б.
30. Уватов У. Икки буюк донишманд (Абу Исо ат-Термизий, Ал-Ҳаким ат-Термизий). – Тошкекнт: Шарқ. 2005.
31. Уватов У. Имом Шоший ҳаёти ва ижодига оид баъзи маълумотлар // Тарихий манбашунослик муаммолари (Республика илмий-амалий анжумани материаллари). - Т.: Университет, 2003.
32. Уватов У. Муҳаддислар имоми. -Т.: Маънавият, 1998.
33. Усманов И. Тасаввуф фанидан глоссарий. – Т.: ТИУ, 2011. – 125 б
34. Усмон Турар. Тасаввуф тарихи. – Т.: Истиқлол, 1999. – 180 б
35. Хайруллаев М. Фараби – крупнейший мыслитель средневековья. – Ташкент: Фан, 1973. – 100 с.
36. Хайруллаев М.М. Ўрта Осиёда илк Уйғониш даври маданияти. – Т.: Фан, 1994. – 77 б.
37. Ҳақиқат манзиллари. – Т.: Янги аср авлоди, 2009.
38. Ҳаққул Иброҳим.Тақдир ва тафаккур. –Тошкент: Шарқ, 2007.
39. Ҳамиджон Ҳомидий. Тасаввуф алломалари. – Т.: Шарқ, 2004.
40. Ҳасанов Ҳ. Сайёҳ олимлар. – Т.: Ўзбекистон, 1981.
41. Ҳожи Исматуллоҳ Абдуллоҳ. Марказий Осиёда ислом маданияти. – Тошкент: Шарқ. 2005. – 384 б.
42. Ҳомидий Ҳ. Тасаввуф алломалари. – Тошкент: Шарқ, 2004
43. Ҳусниддинов З. Ислом: йўналишлар, мазҳаблар, оқимлар. – Т.: Мовароуннаҳр, 2000.– 108 б.
44. Шайх Нажмиддин Кубро – қутби даҳр. – Тошкент: ЎзР ФА Фалсафа ва ҳуқуқ институти, 1998.
45. Шайх Нажмиддин Кубро. – Тошкент: Ёзувчи, 1995.
46. Зиёдов Ш. Ал-Мотуридий ҳаёти ва мероси. – Т.: А. Қодирий, 2000. – 27 б.

AXBOROT MANBALARI:

11. www.gov.uz – O‘zbekiston Respublikasi hukumat portali. 12. http://tdpu.uz 13. http://pedagog.uz 14. www.ziyonet.uz 15. www.edu.uz. 16. www.google.uz.	
7.	Fan dasturi Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Kengashining 2024 yil “24” avgustdagidagi 1 -son bayonnomasi bilan ma’qullangan**.**
8.	**Fan/modul uchun mas’ullar**: **F.A.Narmanov** – SamDU O‘zbekiston tarixi kafedrasi assistenti, tarix fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD)
9.	**Taqrizchilar:** **.I.Muhiddinov** – SamDU O‘zbekiston tarixi kafedrasi dotsenti, tarix fanlari nomzodi **M.O‘.Amonov** – Imom Buxoriy xalqaro ilmiy tadqiqot markazi bo‘liim boshlig’i (tashqi)

Universitetning 2024-yil 16- avgustdagi 301-ij buyrug‘i asosida
Fan dasturlari va mustaqil ta’lim topshiriqlarini ishlab chiqishga ma’sul ishchi guruhi:

Rais - Xolmatov N.O‘.

Kafedra mudiri: **J.B.Vafayeva**
Fakultet dekani: **D.M.Djurakulova**
Sh. Rashidov nomidagi SamDU O‘quv ishlari bo‘yicha 1-prorektor: **A. S. Suleyev**

1-O‘QUV USLUBIY BOSHQARMA

Samarqand davlat universiteti Tarix fakultetining bakalavr va sirtqi bo'lim talabalari uchun tuzilgan "Sharq allomalarining ilmiy merosi" fani O'quv dasturiga

TAQRIZ

O'quv dasturi ta'lim tizimidagi har bir o'quv fanining mazmuni va o'tilish tartibini, talabalar tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilim hamda ko'nikmalar hajmini belgilab beradigan rasmiy pedagogik hujjat hisoblanadi. O'zbekistonda O'quv dasturi tegishli vazirliklar qoshidagi ilmiy metodik kengashlar yoki tegishli oliy ta'lim muassasalari kengashlari tomonidan tasdiqlanadi. Har bir O'quv dasturi uqtirish xati, o'quv fani mazmunining qisqa bayoni, talabalarning bilim va ko'nikmalariga qo'yiladigan talablar singari 3 qismdan iborat bo'ladi. O'quv fanining maqsad va vazifalarini belgilab berish O'quv dasturining muhim belgisidir. Aynan shu narsa yaratiladigan o'quv dasturi muallifiga muayyan nuqtai nazarni tanlash, o'qituvchiga esa pedagogik mo'ljalni to'g'ri belgilash imkonini beradi. Ta'lim amaliyotida O'quv dasturi yaratishning konsentrik (markazlashgan) hamda tizimli usullari bor. Konsentrik yo'l bilan tuzilgan O'quv dasturida ta'limning mazmuni yoki o'quv materiallari o'qitishning keyingi bosqichida yuksakroq darajada takrorlanishi ko'zda tutiladi. Tizimli usuldagi O'quv dasturilarida o'quv materiallari fan mantig'iga muvofiq soddadan murakkabga qarab ketmaket joylashtiriladi.

Ta'limning O'quv dasturi tomonidan belgilangan mazmuni darslik, o'quv qo'llanmalari, ko'rgazmali qurol va metodik tavsiyalarda to'la namoyon bo'ladi

Ushbu o'quv dasturi Tarix fakultetining Tarix ta'lim yo'nalishi talabalari uchun tuzilgan.

Dastur "**Sharq allomalarining ilmiy merosi**" fani bo'yicha yaratilgan bo'lib, unga mazkur yo'nalish xususiyatlarini hisobga olgan holda ma'ruza, amaliy va seminar mashg'ulotlari uchun mavzular va ularni bayon etish uchun zarur ko'rsatma va tavsiyalar keltirilgan. Shuningdek, mustaqil ta'lim shakllari va mavzulari, fanni o'qitish natijalari, ta'lim texnologiyalari va metodlari hamda asosiy va qo'shimcha adabiyotlar batafsil bayon etilgan.

Dasturda fanning mazmuni, talabalar bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yilgan talablar bo'lajak tarixchi va tarix fani o'qituvchisi kelgusidagi kasb faoliyati uchun mos keladigan nazariy tushunchalarni o'z ichiga qamrab olgan.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, ushub o'quv dasturi mazmuni va tuzilishi jihatidan bunday o'quv dasturlariga qo'yiladigan barcha talablarga javob beradi deb hisoblayman va uni tarix ta'lim ta'lim yo'nalishi talabalari uchun "**Sharq allomalarining ilmiy merosi**" fani o'quv dasturini ta'lim jarayonida foydalanish uchun tavsiya etaman.

SamDU O'zbekiston tarixi kafedrasi
Mudiri, t.f.d., dots. **B.S.Goyibov**

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti tarix fakulteti talabalari uchun "Sharq allomalarining ilmiy merosi" fanidan tayyorlangan fan dasturiga

TAQRIZ

Ўзбекистон boy tarixiy merosga ega. Mustaqillik yillarida urf-odat va an'analar, muqaddas islom dini, buyuk ajdodlar, aziz avliyo hamda allomalarning tabarruk nomini tiklash, ular qoldirgan boy merosni tadqiq etish, yosh avlodni milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalash borasida ibratli ishlar amalga oshirilmoqda. Ta'kidlash joizki, Ўзбекистон hamda xorijiy davlatlar kutubxonalari va qo'lyozma fondlarida saqlanayotgan буюк allomalarning qo'lyozma va toshbosma asarlari nusxalarining to'planishi, ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilishi tarixning noma'lum sahifalarini yoritishga, yanada keng va mufassal ma'lumotlarni bilishga, o'tmish haqiqatlarini aniqlashtirishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda oliy ta'lim tizimida o'quv jarayonlarini tashkil etish va uni amalga oshirishning asosiy jihatlaridan biri har bir fanning o'quv-uslubiy bazasining shakllanganligi va uning mazmunan boyligi bilan belgilanadi. Shu nuqtai nazardan har bir фан doirasida muayyan ilmiy adabiyot-darslik, o'quv qo'llanma, uslubiy qo'llanmalar yaratish dolzarb masalalardan biri bo'lib kelmoqda.

Mazkur fan dasturi "Sharq allomalarining ilmiy merosi" fanidan tuzilgan tarix mutaxassisligi bo'yicha o'quv rejasi asosida tayyorlangan.

Fan dasturida o'quv reja asosida ajratilgan soatlarga mos holda ma'ruza mashg'ulotlari uchun 15 ta mavzu, amaliy mashg'ulotlar uchun 15 ta mavzu, mustaqil ta'lim mavzulari uchun 20 ta mavzu ajratilgan. Ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar mavzulari mazmunan bir-biri bilan uzviy bog'liqlikda ketma-ketlik asosida tuzilgan. Mustaqil ishni tayyorlash jarayonida fanning maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda, mazkur fanning xususiyatlari va mustaqil ta'lim uchun belgilangan soat hajmini e'tiborga olib, foydalanish mumkin bo'lgan shakllar tavsiya etiladi. Fan dasturi mazmuniga ko'ra talabalar mustaqil ishlarni amalga oshirish, mazkur jarayonda fan xususiyatlari va unga qo'yilgan talablar va ayni vaqtda tarix fanlari metodologiyasi talablari asosida fanning turli muammoviy masalalari yuzasidan ijodiy va ilmiy yondashgan holda o'z bilimlarini boyitishlari va bunda mustaqil holda ilmiy (metodologik) tadqiqotlarni amalga oshirishlari ham ko'zda tutilgan.

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti tarix fakulteti «O'zbekiston tarixi» kafedrasida tayyorlangan "Sharq allomalarining ilmiy merosi" fan dasturidan talabalarga ta'lim berishda foydalanish mumkin deb hisoblayman va dars mashg'ulotlarida foydalanishga tavsiya etaman.

Taqrizchi, Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi ilmiy xodimi, Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Katta ilmiy xodim **Amonov M.O'.**

XODIMLAR BO'LIMI